Z-skoring usuli orqali kuzatuvlar standartlashtirilgandan so’ng barcha o’zgaruvchilarning o’rtacha qiymati 0 ga, standart chetlanishi 1 ga yaqin qiymatga keltirilgan. Tasviriy statistikadan ko’rinib turibdiki, minimum va maksimum qiymatlar  $\pm 3\sigma$  oraliqda joylashgan, bu esa tahlil qilinayotgan ma’lumotlarda ekstremal qiymatlar mavjud emasligini ko’rsatadi. Ushbu kriteriya taxminan ma’lumotlarning 99,7% ini qamrab oladi (1-jadval).

1-jadval  
Kuzatilayotgan o'zgaruvchilarning tasviriy statistikasi<sup>4</sup>

Ko'rsatgichlar	Kuzatuvlar soni	O'rtacha qiymati	Standart chetlanishi ( )	Minimum qiymati	Maksimum qiymati
z_y	84	0.0000	1	-2.45008	2.839921
z_roa	82	0.0000	1	-2.72659	2.457725
z_roe	82	0.0000	1	-2.04532	2.007252
z_sfm	82	0.0000	1	-2.57762	2.600759
z_ln(de)	74	-0.0017	0.99	-2.32024	2.512947
z_ln(eps)	77	0.0000	1	-2.95132	2.916075
z_ln(pe)	77	0.0000	1	-2.56059	2.030989
z_ln(ps)	77	-0.0243	0.99	-2.78720	2.408412
z_ln(pb)	80	0.0000	1	-2.37466	2.373194

Ekonometrik tahlilning birinchi bosqichida tanlab olingan o'zgaruvchilarning korrelyatsiya matritsasi tuzilib, ular o'rtasida multikollinearlik holati tekshirilgan. Dastlabki korrelyatsiya matritsasi shuni ko'rsatdiki, P/B va P/S, ROE va ROA hamda sof foyda marjasi o'rtasida 0,8 dan yuqori darajadagi kuchli bog'liqlik mavjud ( $z_{roe}$  va  $z_{roa}$  o'rtasida  $r = 0,8976$ ;  $z_{roa}$  va  $z_{sfm}$  o'rtasida  $r = 0,8293$ ). Bu ko'rsatkichlar iqtisodiy ma'nosi jihatidan o'zaro yaqin bo'lgani sababli multikollinearlikka olib keladi.

Multikollinearlikning oldini olish maqsadida yaqin ma'noli o'zgaruvchilardan kengroq qamrovga ega bo'lganlari tanlab olingan. Rentabellikni tavsiflash uchun ROE, bozor bahosi uchun esa P/B asosiy indikator sifatida qoldirilgan. P/S, ROA va sof foyda marjasi modeldan chiqarib tashlangan. Qolgan o'zgaruvchilar o'rtasida multikollinearlik darajasini yanada aniqroq baholash uchun VIF (Variance Inflation Factor) testi o'tkazilgan (2-jadval).

2-jadval  
Mustaqil o'zgaruvchilar bo'yicha VIF testi natijalari<sup>5</sup>

O'zgaruvchilar	VIF	1/VIF
z_roe	1.11	0.903571
z_ln(de)	1.97	0.508236
z_ln(eps)	1.42	0.705386
z_ln(pe)	1.31	0.763491
z_ln(pb)	1.62	0.616175
O'rtacha VIF	<b>1.48</b>	

VIF natijalari mustaqil o'zgaruvchilar orasidagi multikollinearlik darajasini baholaydi. Eng yuqori VIF qiymati 1,97 ga teng (D/E ko'rsatkichi), bu an'anaviy 5 yoki 10 lik yuqori chegaralardan ancha past. Bu modelda muhim darajada kollinearlik mavjud emasligini va tanlab olingan o'zgaruvchilar o'rtasidagi bog'liqlik regressiya tahlili uchun maqbul darajada ekanligini ko'rsatadi.

Panel tahlilning Fixed Effects va Random Effects modellariga alternativ sifatida dastlab oddiy eng kichik kvadratlar (OLS) regressiya modeli orqali kutilayotgan daromadga mustaqil o'zgaruvchilarning ta'siri baholangan (3-jadval).

3-jadval  
Qimmatli qog'ozlardan kutilayotgan qaytinga ta'sir qiluvchi omillarni OLS regressiya modeli natijalari<sup>6</sup>

Erksiz o'zgaruvchi	Koefficient	Standart xatolik	t	P> t	[95% conf.interval]	
z_y						
z_roe	0.3017	0.2200	1.37		-0.1379	0.7412
z_ln(de)	-0.0766	0.1293	-0.59	0.556	-0.3349	0.1818

4 Manba: F.K.Sindarov PhD dissertatsiyasi (2026), 2.7-jadval ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

5 Manba: F.K.Sindarov PhD dissertatsiyasi (2026), 2.10-jadval ma'lumotlari.

6  $R^2=0.623$ ; Adj.  $R^2=0.592$ ; F-stat = 18,35; F-test (p) = 0,0002. Manba: F.K.Sindarov PhD dissertatsiyasi (2026), 2.9-jadval.



z_ln(eps)	0.2168	0.1210	1.79	0.048	-0.0250	0.4585
z_ln(pe)	0.5696	0.1543	3.69	0.000	0.2613	0.8778
z_ln(pb)	0.1208	0.1562	0.77	0.042	-0.1912	0.4328
_cons	0.0352 0.1141		0.31	0.046	-0.1928	0.2633

OLS regressiya tahlili natijalari kutilayotgan daromad ( $z_y$ ) bilan mustaqil o'zgaruvchilar o'rtasidagi asosiy munosabatlarni ifodalaydi.  $R^2 = 0,623$  ko'rsatkichi mustaqil o'zgaruvchilarning kutilayotgan daromaddagi 62,3% o'zgaruvchanlikni izohlashini, F-test ( $p = 0,0002$ ) esa butun model statistik jihatdan ahamiyatli ekanini tasdiqlaydi. P/E koeffitsiyenti ( $\beta = 0,5696$ ,  $p < 0,001$ ) eng yuqori ta'sirga ega bo'lib, uning bir birlikka oshishi daromadni 0,57 birlikka ko'taradi. EPS ( $\beta = 0,2168$ ,  $p = 0,048$ ) va P/B ( $\beta = 0,1208$ ,  $p = 0,042$ ) ham yetarli darajada sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi. ROE ( $\beta = 0,3017$ ,  $p = 0,075$ ) 10% darajada ahamiyatli bo'lib, o'rtacha ta'sir kuchiga ega. D/E ( $\beta = -0,0766$ ,  $p = 0,556$ ) esa statistik jihatdan ahamiyatli emas.

O'zgarimas effektlar modeli (Fixed Effects Model) panel tahlilda ma'lumotlar to'plamidagi alohida o'zgaruvchilarning vaqt o'tishi bilan erksiz o'zgaruvchiga ta'sirini baholaydigan ekonometrik usul hisoblanadi. Bu model qimmatli qog'ozlardan kutilayotgan qaytimning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni baholashda kompaniyalarga xos bo'lgan doimiy xususiyatlarni inobatga oladi (4-jadval).

#### 4-jadval

Qimmatli qog'ozlardan kutilayotgan qaytinga ta'sir qiluvchi omillarni baholashda O'zgarimas effektlar modeli tahlili<sup>7</sup>

Erksiz o'zgaruvchi $z_y$	Koeffisient	Standart xatolik	t	P> t	[95% conf.interval]	
z_roe	0.9628	0.3435	2.80	0.007	0.2735	1.6521
z_ln(de)	-0.0908	0.1264	-0.72	0.476	-0.3445	0.1629
z_ln(eps)	0.2167	0.1250	1.73	0.089	-0.0341	0.4676
z_ln(pe)	0.6537	0.1482	4.41	0.000	0.3563	0.9510
z_ln(pb)	0.0933	0.1481	0.63	0.031	-0.2039	0.3906
_cons	0.1321	0.1118	1.18	0.043	-0.0922	0.3564

O'zgarimas effektlar modeli kutilayotgan daromad ( $z_y$ ) va mustaqil o'zgaruvchilar o'rtasidagi munosabatni firmalarning o'ziga xos, o'zgarimas xususiyatlarini inobatga olgan holda baholaydi. Modelda  $R^2 = 0,594$  ko'rsatkichi mustaqil o'zgaruvchilarning 59,4% izohlash kuchiga ega ekanligini, F-test ( $p = 0,0351$ ) esa umumiy model statistik jihatdan ahamiyatli darajada ekanini ko'rsatadi. Eng kuchli parametr P/E koeffitsiyenti ( $\beta = 0,6537$ ,  $p < 0,001$ ) bo'lib, uning bir birlikka oshishi  $z_y$  ni 0,65 birlikka ko'taradi. ROE ( $\beta = 0,9628$ ,  $p = 0,007$ ) daromadga deyarli bir birlik ta'sir ko'rsatadi va 1% darajada ahamiyatli. P/B ( $\beta = 0,0933$ ,  $p = 0,031$ ) ham ijobiy bog'liqlikni tasdiqlaydi. EPS ( $\beta = 0,2167$ ,  $p = 0,089$ ) 10% darajada sezilarli, D/E ( $\beta = -0,0908$ ,  $p = 0,476$ ) esa statistik ahamiyatga ega emas.

Tasodifiy effektlar modelida aksiyadorlik jamiyatlarining qimmatli qog'ozlaridan kutilayotgan qaytimlar orasidagi farqlar tasodifiy deb qabul qilinadi va modelda bu farqlar nazarda tutiladi. Ya'ni, har bir qimmatli qog'ozga xos bo'lgan doimiy ta'sirlar tasodifiy ravishda tanlangan deb hisoblanadi. RE modeli nafaqat qimmatli qog'ozlardan kutilayotgan qaytimlar o'rtasidagi farqlarni, balki ularni umumiy populyatsiya bo'yicha taqsimotini ham hisobga oladi (5-jadval).

#### 5-jadval

Qimmatli qog'ozlardan kutilayotgan qaytinga ta'sir qiluvchi omillarni baholashda Tasodifiy effektlar modeli tahlili<sup>8</sup>

Erksiz o'zgaruvchi $z_y$	Koeffisient	Standart xatolik	t	P> t	[95% conf.interval]	
z_roe	0.5839	0.2726	2.14	0.032	0.0497	1.1182
z_ln(de)	-0.0814	0.1219	-0.67	0.504	-0.3203	0.1575

7  $R^2=0.594$ ; F-test ( $p = 0,0351$ ). Manba: F.K.Sindarov PhD dissertatsiyasi (2026), 2.11-jadval.

8 ; Wald = 21,4; Prob > = 0,0000. Manba: F.K. Sindarov PhD dissertatsiyasi (2026), 2.12-jadval.

$z_{\ln(\text{eps})}$	0.2239	0.1182	1.90	0.048	-0.0077	0.4555
$z_{\ln(\text{pe})}$	0.6046	0.1429	4.23	0.000	0.3246	0.8846
$z_{\ln(\text{pb})}$	0.1189	0.1440	0.83	0.039	-0.1633	0.4010
_cons	0.1054	0.1901	0.55	0.034	-0.2672	0.4780

Tasodifiy effektlar modelining  $R^2 = 0,634$  ko'rsatkichi mustaqil o'zgaruvchilarning 63,4% o'zgaruvchanlikni izohlashini, umumiy F-test ( $p < 0,001$ ) esa model statistik jihatdan ahamiyatli ekanini tasdiqlaydi. Eng yuqori ta'sir P/E koeffitsiyenti ( $\beta = 0,6046$ ,  $p < 0,001$ ) bo'lib, uning z-ko'rsatkichi bir birlik oshishi daromadni 0,60 birlikka ko'taradi. ROE ( $\beta = 0,5839$ ,  $p = 0,032$ ) bir birlik o'sishi daromadni 0,58 birlikka oshiradi va 5% darajada ahamiyatli. EPS ( $\beta = 0,2239$ ,  $p = 0,048$ ) ham 5% darajada sezilarli bo'lib, daromadni 0,22 birlikka oshiradi. P/B ( $\beta = 0,1189$ ,  $p = 0,039$ ) 5% darajada ahamiyat kasb etadi. D/E ( $\beta = -0,0814$ ,  $p = 0,504$ ) esa modelda ahamiyatli emas.

OLS, Fixed Effects va Random Effects modellarining natijalari va ko'rinishi deyarli bir-biriga juda yaqin. Qaysi modelning tahlil uchun ko'proq mos kelishini aniqlash uchun Hausman testidan foydalanilgan. Hausman testi natijasiga ko'ra, agar test natijasi statistik jihatdan sezilarli bo'lsa, FE modeli afzalroq, sezilarli bo'lmasa, RE modeli ko'proq mos keladi (6-jadval).

#### 6-jadval

##### Fixed Effects va Random Effects modellari taqqoslamasi (Hausman testi)<sup>9</sup>

O'zgaruvchilar	(A)	(B)	(A-B)	Standart xatolik
	O'zgarmas effektlar model	Tasodifiy effektlar model	O'zgaruvchilarni farqi	
$z_{\text{roe}}$	0.962793	0.5839365	0.3788568	0.2090445
$z_{\ln(\text{de})}$	-0.090790	-0.0813820	-0.0094098	0.0335392
$z_{\ln(\text{eps})}$	0.216722	0.2239099	-0.0071881	0.0408345
$z_{\ln(\text{pe})}$	0.653674	0.6046125	0.0490612	0.0393597
$z_{\ln(\text{pb})}$	0.093322	0.1188665	-0.0255443	0.0349035

Hausman testi natijalariga ko'ra, FE va RE modellarining koeffitsiyentlari orasidagi farq tizimli emas degan  $H_0$  (nol) gipotezasi  $p = 0,6268$  qiymati bilan rad etilmaydi. Chi-kvadrat statistikasi  $\chi^2 = 4,15$  bo'lib, bu model parametrlarining ikkala yondashuv (O'zgarmas va Tasodifiy effektlar modellari) o'rtasidagi farq tasodifiy ekanini ko'rsatadi. Demak, mustaqil o'zgaruvchilar bilan korxonaga xos omil orasida tizimli bog'liqlik aniqlanmagan va Tasodifiy effektlar modeli koeffitsiyentlari samarali baholashni ta'minlaydi. Shu sababli qimmatli qog'ozlardan kutilayotgan qaytimni tushuntirishda Tasodifiy effektlar modelini tanlash maqsadga muvofiq.

Hausman testi natijasi bizga qaysi modelni tanlash kerakligini aniqlash uchun zarur test hisoblanadi. Bu test orqali model tanlangandan keyin uning ishonchligini tekshirish uchun Breusch–Pagan Lagrange Multiplier (LM) diagnostika testi o'tkazilgan. Bu test Tasodifiy effektlar modelida kompaniyaga xos omillarning dispersiyasini nolga teng deb qabul qilishni tekshiradi. Nol gipoteza ( $H_0$ )  $\text{Var}(u) = 0$  – kompaniyaning o'ziga xos omillarining ta'siri mavjud emas; alternativ gipoteza ( $H_1$ )  $\text{Var}(u) > 0$  – kompaniyaning o'ziga xos omillarining ta'siri mavjud.

Bizning tadqiqotda Chi-kvadrat statistikasi  $\chi^2 = 0,18$  ga, unga mos p-qiymat esa 0,0359 ga teng natija olindi. Bu  $p < 0,05$  sharti bo'yicha  $H_0$  gipotezasini rad etamiz, ya'ni kompaniyaning o'ziga xos omillarining dispersiyasi nolga teng emas. Demak, har bir korxonaga xos ta'sirlar model parametrlarida muhim o'zgaruvchanlik hosil qiladi va ularni e'tiborga olish lozim. Ushbu natija RE modelining OLS yoki FE modellariga nisbatan ancha mos va samarali ekanini ko'rsatadi, chunki u ma'lumotlardagi kompaniya darajasidagi heterojenlikni (korxonaga xos omillarni) hisobga oladi.

RE modeli koeffitsiyentlari va statistik ahamiyatli mustaqil o'zgaruvchilar (P/E, ROE, EPS va P/B) asosida yakuniy ekonometrik model quyidagicha shakllantirildi:

Ushbu model kutilayotgan daromad z-ko'rsatkichini standart chetlanish bo'yicha to'rtta asosiy fundamental va multiplikator ko'rsatkichlari (ROE, EPS, P/E va P/B) orqali baholash imkonini beradi. Modelda P/E ko'rsatkichi eng kuchli ta'sirga ega ( $= 0,6046$ ), undan keyin ROE ( $= 0,5839$ ), EPS ( $= 0,2239$ ) va P/B ( $= 0,1189$ ) joylashgan.

9 Chi-kvadrat () statistikasi = 4,15; Prob > = 0,6268. Manba: F.K. Sindarov PhD dissertatsiyasi (2026), 2.13-jadval.



Tasodifiy effektlar modeli koeffitsiyentlari asosida 2025–2028-yillar davomida tahlil qilinayotgan 14 ta aksiyadorlik jamiyatining aksiyalaridan kutilayotgan qaytimning prognoz qiymatlari hisoblangan. Prognoz qilishda modelga mustaqil o'zgaruvchilar z-ko'rsatgich orqali kiritilganligi uchun ular standart chetlanish () orqali ifodalanadi va mustaqil o'zgaruvchilarning y ga ta'sirining yig'indisi ham standart chetlanish () orqali baholanadi. Kutilayotgan daromadni topish formulasi quyidagicha:

Bu yerda: – qimmatli qog'ozlar qaytimning o'rtacha qiymati; – RE modelida izohlanayotgan kutilayotgan qaytim; – qimmatli qog'ozlar qaytimning standart chetlanishi (7-jadval).

#### 7-jadval

#### Qimmatli qog'ozlardan kutilayotgan daromadning 2025–2028-yillar uchun prognoz ko'rsatkichlari<sup>10</sup>

Yillar				
2025	22.10%	0.23	14.20%	25.37%
2026	23.37%	0.25	14.26%	26.94%
2027	23.93%	0.28	14.31%	27.94%
2028	24.25%	0.27	14.35%	28.12%

Prognoz natijalariga ko'ra, 14 ta aksiyadorlik jamiyatining aksiyalaridan kutilayotgan o'rtacha yillik daromad 2025-yilda 25,37%, 2026-yilda 26,94%, 2027-yilda 27,94% va 2028-yilda 28,12% ni tashkil etishi kutilmoqda. Bu prognozlar 2024-yildagi haqiqiy daromadlilik darajasiga nisbatan barqaror o'sish tendensiyasini ko'rsatib, mahalliy kapital bozorining istiqbolda investorlar uchun yanada jozibador bo'lib borishini bildiradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi ilmiy-uslubiy va amaliy xulosalarni shakllantirish mumkin. Birinchidan, panel ma'lumotlar ekonometrik tahlili O'zbekiston kapital bozoridagi qimmatli qog'ozlar portfelidan kutilayotgan daromadga ta'sir qiluvchi omillarni baholashning samarali metodologik yondashuvi hisoblanadi. 14 ta aksiyadorlik jamiyatining 2019–2024-yillardagi 84 ta kuzatuv asosida olingan natijalar, Markovits-Sharp portfel nazariyasi va Fama-French ko'p omilli modellar mahalliy bozor sharoitida amaliy qo'llanilishi mumkinligini empirik tasdiqlaydi.

Ikkinchidan, ma'lumotlarni standartlashtirish bosqichida logarifmik transformatsiya va z-skoring usullarining birgalikda qo'llanilishi metodologik jihatdan to'g'ri va asoslangan yondashuv ekanligi isbotlangan. Bu usullar ko'rsatkichlarni normal taqsimotga yaqinlashtirish, ekstremal qiymatlar ta'sirini kamaytirish hamda model natijalarining ishonchlilikini oshirish imkonini beradi. Korrelyatsion matritsa va VIF testi (eng yuqori VIF = 1,97) yordamida multikollinearlik darajasi maqbul ekanligi ko'rsatilgan.

Uchinchidan, OLS, FE va RE modellari natijalari Hausman testi ( $\chi^2 = 4,15$ ,  $p = 0,6268$ ) va Breusch–Pagan LM testi ( $\chi^2 = 0,18$ ,  $p = 0,0359$ ) asosida taqqoslanib, RE modeli eng maqbul ekonometrik model sifatida tanlangan. RE modeli  $R^2 = 0,634$  izohlash kuchiga ega bo'lib, kompaniyalar darajasidagi heterojenlikni (korxonaga xos omillarni) hisobga olish orqali aniqroq prognoz qilish imkonini beradi.

To'rtinchidan, ekonometrik tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, qimmatli qog'ozlardan kutilayotgan daromadga eng kuchli statistik ahamiyatli ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar quyidagilardan iborat: P/E koeffitsiyenti ( $\beta = 0,6046$ ,  $p < 0,001$ ), ROE ( $\beta = 0,5839$ ,  $p = 0,032$ ), EPS ( $\beta = 0,2239$ ,  $p = 0,048$ ) va P/B ( $\beta = 0,1189$ ,  $p = 0,039$ ). D/E nisbati ( $p = 0,504$ ) statistik ahamiyatga ega emas. Bu O'zbekiston kapital bozori sharoitida investitsiya qarorlarini qabul qilishda fundamental ko'rsatkichlarning birinchi darajali rolini tasdiqlaydi va Sanjoy Basu (1977, 1983), Fama-French (1993, 2015) tomonidan rivojlangan bozorlar uchun olingan natijalarga muvofiq keladi.

Beshinchidan, RE modeli koeffitsiyentlari asosida 2025–2028-yillar davomida tahlil qilinayotgan 14 ta aksiyadorlik jamiyatining aksiyalaridan kutilayotgan o'rtacha daromad mos ravishda 25,37%, 26,94%, 27,94% va 28,12% ni tashkil etishi prognoz qilingan. Bu mahalliy kapital bozorining barqaror o'sish istiqbolini va investorlar uchun jozibador bo'lib borishini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan:

Aksiyadorlik jamiyatlari uchun investitsion jozibadorlikni oshirishning eng samarali yo'li – fundamental ko'rsatkichlarni mustahkamlash, ya'ni rentabellikni oshirish (ROE), aksiya foydasini barqarorlashtirish (EPS) va bozor qiymatining moslashuvini ta'minlash (P/E va P/B); shaffof moliyaviy hisobotni IFRS standartlariga to'liq mos ravishda yuritish; fond bozorida investorlar bilan muntazam aloqada bo'lish zarur.

10 Manba: F.K.Sindarov PhD dissertatsiyasi (2026), 2.14-jadval ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Regulyator institutlar, xususan, NAPP, Markaziy bank va IMV tomonidan aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy hisobotlarining shaffofligi va taqqoslanuvchanligini oshirish, ularni yagona IFRS formatiga moslashtirish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, “Toshkent” Respublika fond birjasi uchun yagona ma’lumotlar bazasini shakllantirish, UCI indeksini erkin muomaladagi (free-float) aksiyalar asosida hisoblash metodologiyasini takomillashtirish hamda pensiya jamg’armalari va sug’urta kompaniyalarining mahalliy aksiyalar va obligatsiyalarga investitsiya kiritishini rag’batlantiruvchi me’yoriy talablarni ishlab chiqish kapital bozorining institutsional rivojlanishiga xizmat qiladi.

Akademik tadqiqotlar uchun panel tahlilni kengroq aksiyadorlik jamiyatlari tanlanmasi va uzoqroq vaqt qatori, ya’ni 10–15-yillik ma’lumotlar asosida amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Kelgusi izlanishlarda Fama–French uch va besh omilli modellari hamda Carhart to’rt omilli modelini empirik sinash, shuningdek, momentum, kompaniya hajmi, investitsiya intensivligi, sektor effektlari va makroiqtisodiy omillarni modelga kiritish orqali qimmatli qog’ozlar daromadlilikini baholashning kengaytirilgan ekonometrik modellarini ishlab chiqish mumkin.

Mazkur ekonometrik yondashuv va olingan empirik natijalar O‘zbekiston kapital bozorida investitsiya portfelini shakllantirishning ilmiy-uslubiy asosini kengaytiradi va investorlarga aniq, statistik ishonchli prognozlar berish imkonini yaratadi. Kelgusi tadqiqotlarda IPO orqali bozorga chiqayotgan yangi aksiyadorlik jamiyatlari ma’lumotlarini ham hisobga olib, modelning prognozlash kuchini yanada oshirish maqsadga muvofiq.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi “Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6207-son Farmoni. URL: <https://lex.uz/ru/docs/-5371091>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-21-son Farmoni // URL: <https://lex.uz/ru/docs/-8050769>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-apreldagi “Davlat ishtirokidagi yirik korxonalarni transformatsiya qilish va xususiylashtirish jarayonlarini jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-163-son qarori. URL: <https://www.lex.uz/uz/docs/-6898721>
4. Markowitz, H. Portfolio Selection // *The Journal of Finance*. – 1952. – Vol. 7, No. 1. – pp. 77–91.
5. Sharpe, W.F. Capital Asset Prices: A Theory of Market Equilibrium under Conditions of Risk // *The Journal of Finance*. – 1964. – Vol. 19, No. 3. – pp. 425–442.
6. Fama, E.F., French, K.R. Common Risk Factors in the Returns on Stocks and Bonds // *Journal of Financial Economics*. – 1993. – Vol. 33. – pp. 3–56.
7. Fama, E.F., French, K.R. A Five-Factor Asset Pricing Model // *Journal of Financial Economics*. – 2015. – Vol. 116, No. 1. – pp. 1–22.
8. Fama, E.F., French, K.R. International tests of a five-factor asset pricing model // *Journal of Financial Economics*. – 2017. – Vol. 123, No. 3. – pp. 441–463.
9. Carhart, M.M. On Persistence in Mutual Fund Performance // *The Journal of Finance*. – 1997. – Vol. 52, No. 1. – pp. 57–82.
10. Banz, R. The Relationship between Return and Market Value of Common Stocks // *Journal of Financial Economics*. – 1981. – Vol. 9, No. 1. – pp. 3–18.
11. Basu, S. The Relationship between Earnings’ Yield, Market Value and Return // *Journal of Financial Economics*. – 1983. – Vol. 12, No. 1. – pp. 129–156.
12. Basu, S. Investment Performance of Common Stocks in Relation to Their Price-Earnings Ratios: A Test of the Efficient Market Hypothesis // *Journal of Finance*. – 1977.
13. Jegadeesh, N., Titman, S. Returns to Buying Winners and Selling Losers: Implications for Stock Market Efficiency // *Journal of Finance*. – 1993. – Vol. 48. – pp. 65–91.
14. Asness, C.S., Frazzini, A., Israel, R., Moskowitz, T.J. Fact, Fiction and Momentum Investing // *Journal of Portfolio Management*, 40th Anniversary Issue. – 2015.
15. Damodaran, A. Country Risk: Determinants, Measures and Implications – The 2024 Edition. – NYU Stern School of Business Working Paper. – New York, 2024.
16. Damodaran, A. Data and analysis on financial ratios by sector. – 2024. URL: <https://pages.stern.nyu.edu/>
17. Bodie, Z., Kane, A., Marcus, A.J. Investments (11th ed.). – New York: McGraw-Hill Education, 2018.
18. Mishkin, F.S., Eakins, S.G. Financial Markets and Institutions (10th ed.). – Pearson, 2018.
19. Higgins, R.C. Analysis for Financial Management (10th ed.). – McGraw-Hill, 2012.
20. Penman, S.H. Financial Statement Analysis and Security Valuation (5th ed.). – McGraw-Hill, 2013.
21. Brigham, E.F., Ehrhardt, M.C. Financial Management: Theory & Practice. – Cengage Learning, 2022.
22. Anuno, F., Madaleno, M., Vieira, E. Using the Capital Asset Pricing Model and the Fama–French



Three-Factor and Five-Factor Models to Manage Stock and Bond Portfolios: Evidence from Timor-Leste // *Journal of Risk and Financial Management*. – November 2023.

23. Asmâa Alaoui Taib, Safae Benfedoul. The Empirical Explanatory Power of CAPM and the Fama and French Three-Five Factor Models in the Moroccan Stock Exchange // *International Journal of Financial Studies*. – January 2023. – Vol. 11. – p. 47.

24. Cardillo, M., Basso, L.C. The ESG Disclosure–Performance Paradox in BRICS: Strategic Alignment, Total Shareholder Returns, Profitability, and Firm Value. – SSRN Working Paper. – 2025.

25. Gao, W., Li, M., Zou, C. Analysis of the Impact of ESG on Corporate Financial Performance under the Epidemic Based on Static and Dynamic Panel Data // *Wireless Communications and Mobile Computing*. – 2022. – No. 13.

26. Wackers, E., Smit, R., Stadhouders, N., Jeurissen, P. Assessing the relation between financial performance and long-term bank loan interest rates for healthcare providers in the Netherlands: a panel data analysis // *The European Journal of Health Economics*. – 2024.

27. Torres, O. Panel Data Analysis: Fixed and Random Effects (using Stata). – Princeton University, Lecture notes.

28. Jobson, J.D., Korkie, B. Performance Hypothesis Testing with the Sharpe and Treynor Measures // *Journal of Finance*. – 1981. – Vol. 36, No. 4. – pp. 889–908.

29. Roll, R. A Critique of the Asset Pricing Theory's Tests Part I: On Past and Potential Testability of the Theory // *Journal of Financial Economics*. – 1978. – pp. 129–176.

30. Ross, S.A. The Arbitrage Theory of Capital Asset Pricing // *Journal of Economic Theory*. – 1976. – Vol. 13, No. 3. – pp. 341–360.

31. S&P Global. Effective Scoring to Capture Quality and Value in China – Evaluating z-scores vs. alternative normalization. – 2021.

32. CFA Institute. Financial Reporting and Analysis. – 2020.

33. Khudoykulov, Kh.Kh. Asset-pricing models: A case of Indian capital market // *Cogent Economics & Finance*. – 2020. – Vol. 8, Issue 1. – pp. 1–15.

34. Xudoyqulov, X. Aksiyadorlik jamiyatlari kapitalini baholashda kapital aktivlar hisoblash (CAPM) usulidan foydalanish // *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali*. – 2020. – №4. – 47–54-betlar.

35. Xudoyqulov, X. Aksiyadorlik jamiyatlarining kapital qiymatini baholashning metodologik asoslarini takomillashtirish: Dissertatsiya. – Toshkent, 2021. – 257 b.

36. Mustafaqulov, Sh.I. O'zbekistonda investitsion muhit jozibadorligini oshirishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish: Avtoreferat. – Toshkent, 2017. – 26 b.

37. Burxanov, A.U. Practice of Investment Funds Development in Developed Countries // *Theoretical & Applied Science*. – 2018.

38. Elmirzayev, S. va boshq. Moliya bozori: darslik. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2019. – 324 b.

39. Sindarov, F.K. «Kapital bozorida samarali qimmatli qog'ozlar portfelini shakllantirish yo'llari»: PhD dissertatsiyasi. – Toshkent: TDIU, 2026. – 160 b.

40. "Toshkent" Respublika fond birjasi rasmiy ma'lumotlari. URL: <https://uzse.uz>

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

**2026. № 4**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)